

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING METODIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI.

Maqulov Shuxratjon Xolmatjonovich

*Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası katta
o'qituvchisi*

E-mail: shuxratjonmaqulov@gmail.com. Tel: +99894 153 55 85

Аннотация. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarining metodik malakalarini rivojlantirish komponentlari haqida fikr yuritilgan, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida bayon etilgan. Bo'lajak pedagoglarni metodik malakalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha metodlar, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит so'zlar: Metodik malaka, komponent, o'qituvchi faoliyati, matematika o'qitish metodikasi, tadqiqot.

THE NECESSITY OF DEVELOPING METHODOLOGICAL SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Maqulov Shuxratjon Xolmatjonovich

*Senior Lecturer, Department of Primary Education,
Namangan State Pedagogical Institute*

E-mail: shuxratjonmaqulov@gmail.com | Tel: +99894 153 55 85

Abstract: This article discusses the components of developing the methodological skills of future teachers and emphasizes their significance in the educational process. It presents methods and recommendations for improving the mechanisms for enhancing the methodological skills of future teachers.

Keywords: Methodological skills, components, teacher activity, mathematics teaching methodology, research.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Макилов Шухратжон Холматжонович

*Старший преподаватель кафедры начального образования
Наманганский государственный педагогический институт
E-mail: shuxratjonmaqulov@gmail.com | Тел: +99894 153 55 85*

Аннотация: В статье рассматриваются компоненты развития методических навыков будущих педагогов и подчеркивается их значение в

образовательном процессе. Представлены методы и рекомендации по улучшению механизмов развития методических навыков будущих педагогов.

Ключевые слова: Методические навыки, компоненты, деятельность учителя, методика преподавания математики, исследование.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muasasalarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini yangi bosqichga ko'tarishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu bois, O'zbekistonda pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar etkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish maqsadida pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirishda tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalishlar qatorida ko'rsatib o'tildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim jaryonini turli bosqichlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik malakalari kompetentligini rivojlantirish R.X.Djurayev, M.M.Vaxobov, N.N.Azizxodjayeva, N.A.Muslimov, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, M.B.Urazova, N.Raxmonkulova, D.O.Ximmataliyev, B.A.Nazarova, B.Y.Sobirovlar tomonidan tadqiqotlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Pedagogik jarayonda metodik malakalarni rivojlantirish bo'lajak pedagoglar uchun muhim vazifa bo'lib, ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning tarbiya tizimiga to'g'ri yondashuvlarni ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydi. Tarbiya fani o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish, ular uchun ijtimoiy normalarni o'rgatish, o'zligini tanish va jamiyatga foydali shaxs bo'lishga tayyorlashda muhim o'rin kasb etadi. Bu jarayonda tarbiya fani, ya'ni yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan fan, o'qituvchidan faqat bilim emas, balki o'quvchilarni tarbiyalashda metodik malakalar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab qilmoqda. O'qituvchining vazifasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Bo'lajak pedagoglar esa ushbu masalalarni amalga oshirishda o'z metodik malakalarini doimiy ravishda rivojlantirishlari lozim. Bo'lajak o'qituvchilar uchun metodik malakalar, eng avvalo, o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos keladigan usullarni tanlash, o'quv jarayonida turli xil metod va texnikalarni muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya fani o'qitish jarayonida metodik malakalarni rivojlantirish uchun pedagoglar o'z bilimlarini yangilab turishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganishlari va amaliyotda qo'llashlari zarur. Pedagogik jarayonlarni oqilona boshqarish va qarorlarni qabul qilish ko'nikma va malakalarga ega, pedagogik bilim bilan qurollangan, o'z ustida ishlab kasbiy mahoratini oshirishga qodir, innovatsion va ta'lim texnologiyalarini pedagogik faoliyatiga joriy eta oladigan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda.

Bo'lajak pedagoglarning metodik malakalarini rivojlantirishda bir nechta innovatsion texnologiyalar va metodlar qo'llanilishi zarur. Bu texnologiyalar nafaqat pedagoglarning o'z malakalarini oshirishi, balki o'quvchilarga ham sifatli ta'lim va tarbiya berish imkonini yaratadi. Quyida tarbiya fanini o'qitishda metodik malakalarni rivojlantirishning asosiy texnologiyalari keltirilgan:

Kompetensiyaviy yondashuv - bo'lajak pedagoglarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarni egallashga ham yo'naltiradi. Tarbiya fanini

o'qitishda bu yondashuv o'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagoglar o'z bilimlarini faqat o'qitish emas, balki o'quvchilarda kerakli kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirishi kerak. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarda mas'uliyat, hamjihatlik, o'z-o'zini hurmat qilish kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llashi lozim.

Interaktiv o'qitish metodlari - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning tarbiyaviy jarayonga faolligini oshiradi. Misol uchun, guruhli ishlar, munozaralar, ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Tarbiya fanini o'qitishda interaktiv yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash - pedagoglarning metodik malakalarini oshirishda katta rol o'ynaydi. Tarbiya fanini o'qitishda multimedia vositalari, elektron darsliklar, onlayn kurslar va boshqa texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning tarbiyaviy jarayonga qiziqishini oshiradi va ularga zamonaviy bilimlarni taqdim etadi. AKTni qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilim olishini samarali qiladi, balki pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirish imkonini ham yaratadi.

Individual yondashuv - Tarbiya fanini o'qitishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, ularning qiziqishlari va o'rganish uslublariga mos keladigan metodlarni tanlash pedagogning metodik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilar vizual materiallar orqali, ba'zilar esa amaliy mashg'ulotlar orqali yaxshiroq o'rganishadi. Shu bois, pedagog o'quvchilarni tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos metodlarni tanlashni o'rganishi kerak.

Refleksiya va o'zini baholash - Tarbiya fanini o'qitishda pedagoglar o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borishlari zarur. O'zini baholash va refleksiya yordamida pedagoglar o'z metodlarini qayta ko'rib chiqadilar, ularni takomillashtiradilar va o'z metodik malakalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlaydi va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga imkon yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tarbiya fanining mazmuni jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, madaniy meros va pedagogik an'analar bilan uzviy bog'liq. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy-ma'rifiy jarayonlar, global axborot almashinuvi va ilmfanning jadal rivoji bo'lajak pedagogdan tarbiya masalalarini chuqur tushunish, ularning nazariy jihatlarini o'ziga xos metodik yondashuvlarda qo'llay olishni talab etadi. Shuning uchun ham tarbiya jarayoniga yaxlit tizim sifatida qarash zarur hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, tarbiya jarayoniga yaxlit yondashuv nafaqat dars jarayonida nazariy bilim berish, balki o'quvchilarni turli ijtimoiy, psixologik, ma'naviy muhitga moslashishlariga ko'mak beradigan metodik vositalar orqali ham amalga oshirishni ko'zda tutadi. Shu sababli bo'lajak pedagog shaxsning o'zida tarbiya usullarini, pedagogik-psixologik qonuniyatlarni, didaktik materialdan to'g'ri foydalanishni, zamonaviy interfaol texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini shakllantirishi kerak.

Ayni paytda tarbiya fanini o'qitish jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratish, ularni turli yosh davrlarida samarali qo'llash zarur. Masalan, A. B. Mamarasulovich o'zining "Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash–xalqimiz tarbiyaviy an'alarining o'ziga xos jihatlari sifatida" maqolasida avlodlar o'rtasidagi uzviylik, oilada tarbiya, maktab va mahalla hamkorligi, shuningdek, milliy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot beradi. Ushbu yondashuv, ya'ni tarbiya jarayonini turli muhit va sharoitlar bilan bog'liq holda "yaxlit tizim" sifatida o'rganish bo'lajak pedagoglarga katta nazariy hamda amaliy ko'mak beradi. Bo'lajak pedagog uchun "yaxlit tizim" tushunchasi shundan iboratki, tarbiya jarayonini faqatgina ma'ruza, seminar yoki dars bilan cheklash mumkin emas. Bunda o'qitishning butunligi va uzviyligi ta'minlanishi, tarbiya materialini taqdim etish, uni mustahkamlash, baholash, ijodiy yondashuvda qo'llash, yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish kabilar bir butun sikl shaklida tushunilishi lozim. Bo'lajak pedagog tarbiya jarayonini puxta rejalashtira olishi, reja va maqsadlarga mos metodik vositalarni tanlay bilishi, darsdagi faoliyatni izchil tashkil etishi va natijani tahlil qila olishi shu jarayonda metodik mahoratini namoyon etishning muhim omilidir.

Bo'lajak pedagoglarni metodik malakalarini rivojlantirishda asosiy omillar. Metodik malaka – bu nafaqat kitobiy bilim, balki nazariy qarashlar, psixologik-lingvistik kompetensiyalar, pedagogik ssenariy tuzish, darsni rejalashtirish, sinfdagi muhitni boshqarish, baholash, aks sado (feyedback) yig'ish, tahlil qilish, korreksiyalash kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladigan keng qamrovli tushunchadir. Mazkur jarayon bo'lajak pedagogning oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlari va amaliyotidagi faoliyatini birlashtirishi orqali samarali shakllanadi. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha malaka hosil qilishda quyidagi asosiy omillar muhim ahamiyatga:

Nazariy bilim asoslari. Tarbiya jarayonining nazariy asoslarini puxta bilish, pedagogik-psixologik qonuniyatlarni o'rganish, metodik prinsiplarga tayanuvchi bilim bazasiga ega bo'lish.

Praktik ko'nikmalar. Turli sinf darajalarida o'quvchilar bilan ishlash usullarini egallash, interfaol metodlarni tanlash va qo'llash, dars jarayonini baholash me'zonlarini tushunish.

Innovasion texnologiyalarni bilish. Hozirgi kunda tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmoqda. Masalan, masofaviy ta'lim, onlayn platformalar va elektron resurslardan foydalanish.

Tahliliy salohiyat. O'ziga xos dars tahlili, muntazam ravishda ta'limiy jarayonni baholash, rejalashtirishni takomillashtirish, muammolarni aniqlash va ularga ijodiy yechim topish.

Refleksiv yondashuv. Bo'lajak pedagog qanday metodlarni ishlatganini, darsdagi o'quvchilarning reaksiyasini, erishilgan natijalarni doimiy tahlil qilish orqali o'z malakasini yanada rivojlantirib boradi.

Metodik malaka darajasining o'sishi ta'lim jarayonida bo'lg'usi pedagogni yangi ijtimoiy va kasbiy vazifalarni bajara olishga, ya'ni tarbiya jarayonini mukammal o'tkazishga tayyorlaydi. Aynan shunday tayyorgarlik pirovardida jamiyatga ma'naviy-etuk, mustaqil tafakkurli, faol fuqarolarni yetishtirish imkonini beradi. "Tarbiya fanini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida" yondashuvi bo'lajak pedagoglarni metodik malakalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu jarayonda nazariy bilim va amaliy malaka uzviyligi ta'minlanadi, bo'lajak

o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina ma'lum bir mavzuni yetkazish bilan cheklanmaydi, balki ularning dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi, xulq-atvori va intellektual salohiyatini yuqori bosqichga olib chiqishda faol ishtirok etadi.

XULOSALAR.

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

Tarbiya fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning metodik malakalarini rivojlantirish texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, individual yondashuv va refleksiya metodlari bo'lajak o'qituvchilarning metodik malakalarini oshirishda samarali vositalardir. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy jihatdan to'g'ri shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Shuning uchun, pedagoglar o'z faoliyatida ushbu metodlarni qo'llashga harakat qilishlari kerak.

Mazkur ish davomida ilgari surilgan metodik qoida va dastur bo'lajak pedagoglarga quyidagilarni ta'minlashni nazarda tutadi:

-To'liq ko'lamli rejalashtirish: O'quvchilarning yosh xususiyatlari, guruh muhiti, dars vaqti, mavzuning kengligi, interfaol texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari va boshqalar hisobga olinishi.

-Faol ishtirok: O'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda, munozaralarda, ijodiy ishlar va tahlillarda faol qatnashishi, mustaqil xulosa chiqara olishi.

-Baholash va refleksiya: Har bir bosqichda erishilgan natijalar baholanib, tahlil qilinishi, zarur korektivlar kiritilishi orqali jarayonni takomillashtirish.

-Innovation yondashuv: Zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual yoki masofaviy dars formatlari bilan integratsiya qilish, o'quvchilarning rag'batini oshiruvchi usullarni doimiy izlab borish.

Shuningdek, "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" doirasida yangi yondashuv sifatida kiritilgan "Yaxlit tizim moduli" bo'lajak pedagoglarning chuqur nazariy bilim, yuqori darajadagi amaliy malaka hamda refleksiv kompetensiyalarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Qolaversa, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiradigan, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan tarbiya metodikasini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, bo'lajak pedagogning kasbiy mahorati oshadi, u dars jarayonida ijodkorlik bilan yondashadi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga intiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda nazariy qarashlar va amaliy tajriba uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Bu metodika orqali yaratilayotgan muhitda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalar faqat "ustoz–shogird" doirasida cheklanmay, balki hamkorlik, o'zaro ishonch va o'qish jarayonida birgalikda izlanish tamoyillariga asoslanadi. Bunday tamoyillar kelajakda jamiyatda mustahkam ijtimoiy aloqalar, ma'naviy barkamollik va yuqori salohiyatli avlodni kamol toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday metodika takomillashib boradigan jarayon bo'lib, bo'lajak pedagog o'z faoliyatida mazkur yondashuvni ko'p marotaba sinab, yangi g'oyalar bilan to'ldirib borishi, ijodiy integratsiyalarni amalga oshirishi, shuningdek, zamonaviy texnologik taraqqiyotdan kelib chiqib metodik vositalarini kengaytirishi lozim. Shundagina "Tarbiya fanini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida" tamoyili to'laqonli ro'yobga chiqadi, bo'lajak pedagog esa kasbiy faoliyatida mustahkam poydevor va yuzaga chiqayotgan ehtiyojlarga mos yondashuvga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 февралдаги «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4623-сонли Қарори.
2. Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 175 б. (510)
3. Худайберганаева З. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлашда ҳаётий вазиятларни имитациялаш методларидан фойдаланиш.// Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил №10). 184-188-бетлар.
4. Yusupova M. Tarbiya nazariyasiga doir ilmiy-nazariy qarashlar va raqamli dunyoda tarbiya masalalarining nazariy-metodik asoslari //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20202 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-sonli Qarori.

6. Mamarasulovich A. B. Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash–xalqimiz tarbiyaviy an'analarining o'ziga xos jihatlari sifatida //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 273-281.
7. Hafizaxon U. Tarbiya Fani O'qituvchilarining Metodik Kompetentligini Rivojlantirishning Nazariy Asoslari //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – C. 393-397.¹ Xudayberganova Z. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash metodlaridan foydalanish.// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil №10). 184-188-betlar.